

## XIZMAT KO'RSATISH TARMOG'IDA HUDUDIIY NOMUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR

**Boboqulov Sanjar Baxronkulovich**

**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti dotsenti**

**Sherzodova Diyora Sherzod qizi**

**Samarqand iqtisodiyot va servis instituti stajyor-assistenti**

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21428306>

**Annotatsiya.** Mazkur tezisda xizmat ko'rsatish sohasida hududiy nomutanosiblikni shakllantiruvchi asosiy omillar nazariy jihatdan tahlil qilingan. Demografik, iqtisodiy, infratuzilmaviy va institutsional omillarning xizmatlar sohasi rivojlanishiga ta'siri xorijiy ilmiy tadqiqotlar yoritilgan. Hududiy tafovutlarni kamaytirishga qaratilgan kompleks yondashuvning ahamiyati asoslab berilgan.

**Kalit so'zlar:** xizmat ko'rsatish sohasi, hududiy nomutanosiblik, hududiy tafovut, demografik omillar, iqtisodiy omillar, infratuzilmaviy omillar, institutsional omillar, hududiy rivojlanish

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning hozirgi bosqichida xizmat ko'rsatish sohasi milliy iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyati yildan-yilga oshib bormoqda. Jumladan, "Xizmatlar sohasi bugungi kunda jahon yalpi ichki mahsulotining (YaIM) uchdan ikki qismidan (2/3) ortig'ini yaratadi, rivojlangan mamlakatlarda to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investitsiyalarning 75 foizdan ortig'ini jalb qiladi<sup>1</sup>.

So'nggi yillarda O'zbekistonda ham xizmatlar sohasini rivojlantirish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsa-da, hududlar kesimida xizmatlar hajmi, sifati va ulardan foydalanish imkoniyatlari bo'yicha sezilarli nomutanosibliklar saqlanib qolmoqda. Mazkur holat hududlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi, investitsiya faolligi va aholi turmush sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Shu bois xizmat ko'rsatish tarmog'ida hududiy nomutanosiblikni shakllantiruvchi omillarni aniqlash va ularning ta'sirini baholash dolzarb ilmiy-amaliy vazifalardan biri hisoblanadi.

Hududiy xizmatlar bozorini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmining obyektlari sifatida to'qqizta yo'nalish — resurslar, ijtimoiy infratuzilma, bandlik, pul muomalasi, ijtimoiy ta'minot, kadrlar tayyorlash tizimi, atrof-muhit, inson salohiyati va inson kapitali — ko'rsatilgan. Garchi, ushbu yo'nalishlarni davlatni tartibga solish mexanizmining obyektlari sifatida qaraladigan bo'lsa-da, ularning har biri hududlar bo'yicha notekis taqsimlanganda xizmatlar sohasi rivojlanishiga bevosita yoki bilvosita ta'sir ko'rsatishi tabiiy holdir. Shu sababli, mazkur obyektlarni hududiy nomutanosiblikka ta'sir etuvchi omillar tarkibiga kiritib, ularni 4 ta yirik ta'sir etuvchi omillar guruhiga birlashtiriladi: demografik, iqtisodiy, infratuzilmaviy va institutsional.

**Demografik omillar.** Aholi soni, zichligi va uning yosh tarkibi xizmatlarga bo'lgan talabni bevosita belgilaydi. Aholisi zich va shaharlashgan hududlarda xizmat ko'rsatish korxonalari uchun yetarlicha mijozlar mavjud bo'lib, bu ularning rentabelligini ta'minlaydi. Aholisi siyrak, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan tumanlarda esa xuddi shu turdagi xizmat ko'rsatish biznesi iqtisodiy jihatdan kamroq jozibali bo'ladi. Bizning Samarqand viloyati bo'yicha hisob-kitoblarimizga ko'ra, viloyat aholisining 63,3 foizi qishloq joylarda istiqomat qilishi<sup>2</sup>, xizmatlar

<sup>1</sup> [https://www.oecd.org/en/topics/services-trade.html?utm\\_source](https://www.oecd.org/en/topics/services-trade.html?utm_source)

<sup>2</sup> Samarqand viloyati statistika boshqarmasi rasmiy ma'lumotlari, 2024-yil 1-yanvar holatiga

sohasining qishloq tumanlarida shahar markazlariga nisbatan sekinroq rivojlanishining tabiiy demografik asosini tashkil etadi.

**Iqtisodiy omillar.** Aholi daromadlari darajasi, investitsiyalar hajmi va kichik biznes faolligi xizmatlarga bo'lgan to'lov qobiliyatli talabni belgilaydi. R.Shankar va A.Shahning rivojlanayotgan mamlakatlar bo'yicha keng qamrovli tadqiqotida hududiy tengsizlikning yuqori darajada bo'lishini tushuntiruvchi ikkita nazariy izoh keltiriladi: **"nomukammal davlat"** rivojlanayotgan davlatlar cheklangan investitsion imkoniyatlar sababli o'z rivojlantirish sa'y-harakatlarini kamroq sonli hududlarga jamlashga majbur bo'ladi va **"nomukammal bozor"** rivojlanayotgan davlatlarda bozor institutlari yetarlicha rivojlanmagan bo'lib, hududlar o'rtasida savdo va resurslar harakatiga institutsional, infratuzilmaviy va madaniy to'siqlar mavjud bo'ladi<sup>3</sup>. Ushbu ikkala izoh ham O'zbekiston va Samarqand viloyati sharoitiga tatbiq etilishi mumkin. Cheklangan davlat resurslari tabiiy ravishda viloyat markaziga jamlanadi, shu bilan birga tumanlar o'rtasida tadbirkorlik faoliyati yuritish uchun ma'muriy-institutsional to'siqlar xizmat ko'rsatuvchi kapitalning erkin harakatlanishini cheklaydi.

**Infratuzilmaviy omillar.** Transport va raqamli aloqa infratuzilmasining rivojlanganlik darajasi xizmatlarning hududlar bo'yicha taqsimlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Erdyneeva va boshqalarning tasnifida "ijtimoiy infratuzilma" xizmatlar sohasining ishlab chiqarish va iste'mol jarayonini ta'minlovchi tarmoqlar va muassasalar majmui sifatida belgilangan<sup>4</sup>. Yaxshi rivojlangan yo'l va internet tarmog'iga ega tumanlarda xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar mijozlarga yetib borish, resurslarni yetkazib berish va zamonaviy (raqamli) xizmat turlarini joriy etishda kamroq xarajat va vaqt sarflaydi, bu esa ularning raqobatbardoshligini oshiradi.

**Institutsional omillar.** Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash choralari, soliq imtiyozlari, litsenziyalash tartib-taomillari va mahalliy hokimiyatning mustaqillik darajasi xizmatlar sohasining hududiy rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Amerikalik iqtisodchi Duglas Nortning institutsional iqtisodiyot nazariyasiga ko'ra, iqtisodiy faoliyatning "o'yin qoidalari" — ya'ni rasmiy institutlar (qonunlar, litsenziyalash tartibi, mulkchilik huquqlarini himoya qilish darajasi) va norasmiy institutlar (ishonch darajasi, mahalliy biznes-madaniyat, korrupsiya darajasi) — hududlarning iqtisodiy faoliyat uchun jozibadorligini belgilovchi asosiy omil hisoblanadi<sup>5</sup>. Xizmat ko'rsatish sohasi, ishlab chiqarish sanoatidan farqli o'laroq, ko'pincha davlat litsenziyasi yoki ruxsatnomasini talab qiladigan faoliyat turi hisoblanadi, shu sababli hududlar o'rtasida litsenziyalash tartib-taomillarining murakkabligi yoki mahalliy hokimiyat organlarining bunday ruxsatnomalarni berish tezligidagi farqlar — tadbirkorlarning aynan qaysi hududda xizmat ko'rsatish biznesini ochish yoki kengaytirish qaroriga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Bundan tashqari, mahalliy byudjetlarning moliyaviy mustaqillik darajasi ham muhim institutsional omil hisoblanadi: agar tuman hokimiyati o'z byudjetidan xizmatlar infratuzilmasini, masalan, biznes-inkubatorlar, kichik bozorlar, servis markazlari mustaqil

<sup>3</sup> Shankar R., Shah A. Bridging the Economic Divide Within Countries... // World Development. — 2003. — Vol. 31(8). — P. 1421-1441.

<sup>4</sup> Erdyneeva K.G. va boshqalar. The Mechanism of State Regulation of Regional Services Markets... // IRMM. — 2016. — Vol. 6(S2). — P. 274-280

<sup>5</sup> North D.C. Institutions, Institutional Change and Economic Performance. — Cambridge: Cambridge University Press, 1990.

rivojlantirish huquqi va mablag'iga ega bo'lmasa, u markaziy yoki viloyat byudjetidan ajratiladigan mablag'ga to'liq qaram bo'lib qoladi, bu esa qarorlar qabul qilish jarayonini sekinlashtiradi va mahalliy ehtiyojlarga moslashuvchanlikni pasaytiradi. Shuningdek, davlat xizmatlarini raqamlashtirish darajasi elektron hukumat tizimlari, onlayn ruxsatnoma berish platformalari ham institutsional omil sifatida ko'rib chiqilishi mumkin, chunki raqamlashtirilgan hududlarda tadbirkorlar uchun ma'muriy to'siqlar sezilarli darajada kamayadi, bu esa ayniqsa geografik jihatdan viloyat markazidan uzoq joylashgan tumanlar uchun muhim ahamiyatga ega.

Xulosa qilib aytganda, xizmat ko'rsatish sohasidagi hududiy nomutanosiblik demografik, iqtisodiy, infratuzilmaviy va institutsional omillarning o'zaro ta'siri natijasida shakllanadigan murakkab iqtisodiy hodisa hisoblanadi. Mazkur omillarni kompleks baholash hududlar kesimida xizmatlar rivojlanishidagi tafovutlarni aniqlash hamda ularni kamaytirishga qaratilgan samarali hududiy siyosatni ishlab chiqish imkonini beradi. Shu nuqtai nazardan, xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirishda har bir hududning iqtisodiy salohiyati va mavjud resurslarini hisobga olgan differensial yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiqdir.

### **Adabiyotlar, References, Литературы:**

1. Erdyneeva K.G. va boshqalar. The Mechanism of State Regulation of Regional Services Markets... // IRMM. — 2016. — Vol. 6(S2). — P. 274-280.
2. Samarqand viloyati statistika boshqarmasi rasmiy ma'lumotlari, 2024-yil 1-yanvar holatiga.
3. Shankar R., Shah A. Bridging the Economic Divide Within Countries... // World Development. — 2003. — Vol. 31(8). — P. 1421-1441.
4. Muallif tomonidan Samarqand viloyati statistika boshqarmasi ma'lumotlari (2021-2025) asosida hisoblangan.